Innovatsion yondashuvlar asosida ekologik ta'limni tashkil etish texnologiyalari	892
Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona	
История, теоретические основы и современные направления развития вида спорта "кураш"	898
Дустов Дилмурод Каримович	
Совершенствование инновационных технологий через виды спортивной деятельности студентов педагогических высших учебных заведений.....	902
Турдиев Умиджон Камолiddинович	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	906
Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatining turli jihatlarida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish texnologiyalari	910
Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	914
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirishning mazmuni (dastur, darsliklar tahlili) va vositalari.....	919
Begmatova Nasiba Safarbayevna	
Innovative Method for the Treatment of Chronic Periodontitis Using the "Geistlich Bio-Oss" Preparation..	923
Pardayev Xurshidjon Uralovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligi.....	926
Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari	931
Tursunoy Yusupova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish.....	936
Zulayxo Nazarova, Musayeva Sayyora Erkaboy	

5-6 sinflarda matematika fanini o'qitishda mrt yondashuvini mblock v.5.4.3 dastur bilan takomillashtirish .	940
<i>Abduqodirova Patmaxon Tursunboevna, Moxinur Ruziyeva Mirzoulug'bek qizi</i>	
Kredit modul tizimida bo'lg'usi o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	946
<i>Abdurasulova Shoira Kushakovna, Xaitqulova Gulrux Qaxramon qizi, Abdumo'minova Charos Baxodir qizi</i>	
Maktablarda matematikadan o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	950
<i>Absattarova Gulmira</i>	
Pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarning roli va samaradorligi	953
<i>Akromova Nigora Erkinovna</i>	
Harakatga oid masalalarni yechish jarayonida jadvallardan foydalanishning samaradorligi	955
<i>Raximova Shoira Adilbekovna, Axmadjonova Lobar Otabek qizi</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlarning ahamiyati	959
<i>Bekniyazova Nursulu</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari	962
<i>Egamberdiyeva Yulduzxon Urinbayevna, Tojiboyeva Mo'nisaxon Umidbek qizi</i>	
Pedagogikaning mohiyati, vazifalari va ta'lim-tarbiyadagi zamonaviy yondashuvlar	965
<i>Ergasheva Dilnavoz Baxtiyor qizi</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....	968
<i>Isayeva Umida Nig'matjanovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va uning pedagogik samaradorligi.....	970
<i>Mirzabaeva Malika</i>	
Bo'lajak energetik muhandislarni tayyorlashda yashil energetika ta'limini rivojlantirish	974
<i>Narimanov Baxodir Absalomovich</i>	
Modern Aspects of Epidemiological Issues in Periodontal Diseases Associated With the Consumption of Groundwater	977
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Modern Insights Into the Epidemiology of Periodontal Diseases Linked to Groundwater Consumption.....	981
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Falsafa fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkoniyatlari va metodologik asoslari hamda o'ziga xos xususiyatlari	983
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'gli</i>	
Pedagogik oliy ta'lim talabalarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili	986
<i>Shobduraximova Umriniso, Abduqaxxorova Moxinur</i>	
Logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda logopedik o'yinlarning ahamiyati va roli	990
<i>Yuldosheva Dilbarxon Turg'unovna</i>	
Mechanical Destruction of a Dental Implant.....	993
<i>Boyev Zukhriddin, Doniyorov Ortik</i>	
Инновационные подходы к диагностике и лечению кариеса: современные технологии в практике стоматолога.....	997
<i>Шукурова Нодира Тиллаевна, Шукуровна Наргиза Фуркатовна, Фуркатова Сабрина Фармоновна</i>	
Chet tili fonetik kompetensiyasini shakllantirishda raqamli ta'lim vositalarining innovatsion imkoniyatlari ..	1001
<i>Jabborova Lobarxon Abduqayumovna</i>	



CHET TILI FONETIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING INNOVATSION IMKONIYATLARI

Jabborova Lobarxon Abduqayumovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU Ingliz tili kafedrası dotsenti v.b.

Abstract: Mazkur maqolada chet tili o'qitish jarayonida fonetik kompetensiyani shakllantirishda raqamli ta'lim vositalarining innovatsion imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, xususan mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik, sun'iy intellekt asosidagi platformalar (ELSA Speak, Speechling, YouGlish va boshqalar) fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholanadi. Tadqiqotda CEFR mezonlari asosida fonologik nazorat, talaffuz aniqligi, intonatsiya va ritmi takomillashtirish yo'llari ko'rsatilib, raqamli vositalar yordamida o'quvchilar motivatsiyasi va o'zini baholash ko'nikmalari kuchayishi ilmiy asosda yoritiladi.

Key words: fonetik kompetensiya, raqamli ta'lim, innovatsion texnologiyalar, CEFR, sun'iy intellekt, talaffuz.

Annotatsiya: This article explores the innovative potential of digital educational tools in developing phonetic competence in foreign language learning. The effectiveness of mobile applications, virtual and augmented reality, and AI-based platforms (such as ELSA Speak, Speechling, and YouGlish) is analyzed in improving pronunciation skills. Based on CEFR criteria, the study highlights methods for enhancing phonological control, pronunciation accuracy, intonation, and rhythm. The research also emphasizes how digital technologies increase learner motivation and self-assessment abilities in the phonetic learning process.

Kalit so'zlar: phonetic competence, digital education, innovative technologies, CEFR, artificial intelligence, pronunciation.

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные возможности цифровых образовательных инструментов в формировании фонетической компетенции при обучении иностранным языкам. Анализируются эффективность использования мобильных приложений, виртуальной и дополненной реальности, а также платформ на основе искусственного интеллекта (ELSA Speak, Speechling, YouGlish и др.) для совершенствования произносительных навыков. На основе критериев CEFR показаны пути улучшения фонологического контроля, точности произношения, интонации и ритма. Особое внимание уделено повышению мотивации и развитию навыков самооценки обучающихся с применением цифровых технологий.

Ключевые слова: фонетическая компетенция, цифровое образование, инновационные технологии, CEFR, искусственный интеллект, произношение.

KIRISH

Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida muhim o'rin egallab bormoqda. Ayniqsa, chet tilini o'qitishda, xususan fonetik kompetensiyani shakllantirishda, raqamli vositalarning o'rni beqiyosdir. COVID-19 pandemiyasi natijasida butun dunyoda "emergency remote learning" (favqulodda masofaviy ta'lim)ga o'tilgan davrda, fonetik transkripsiyani o'rgatish bo'yicha yangi metodlar joriy etilishi zarur bo'ldi. Quesada Vázquez o'z tadqiqotida Rovira i Virgili universitetida o'tkazilgan fonetika kursi asosida to'rtta raqamli vositani tavsiya qiladi: IPA Palette, Typelt Online Keyboard, Online IPA Chart Keyboard va Sounds of English Keyboard. Ushbu vositalar orqali talabalarga turli sharoitlarda – onlayn yoki offlayn – fonetik transkripsiyani mashq qilish imkoniyati yaratilgan.

Raqamlashtirish bu – analog ma'lumotlarni raqamli formatga o'tkazish bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va ta'lim tizimlarida yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali transformatsiya qilish jarayonidir. Ta'limda raqamlashtirish – bu o'quv jarayonida raqamli texnologiyalar (kompyuter, internet, mobil ilovalar, AR/VR, sun'iy intellekt) dan foydalanish orqali o'qitish, baholash va boshqaruvni takomillashtirish demakdir.

UNESCO (2021) va OECD (2020) hisobotlariga ko'ra, raqamli ta'lim o'quvchi va o'qituvchilarning yangi ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini moslashtirish, inklyuzivlikni ta'minlash va ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.



Chet tillarini o'rgatish sohasida yuz berayotgan zamonaviy o'zgarishlar ta'lim jarayoniga ilg'or raqamli vositalarni faol qo'llashni taqozo qilmoqda. Jumladan, fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda bu texnologiyalar o'quvchilarga tovushlar, urg'u va intonatsiya kabi fonetik jihatlarni chuqur o'zlashtirish imkonini bermoqda. Mazkur yo'nalishda talabalar mustaqil ravishda mashq qilish, talaffuz ustida ishlash va o'z nutqini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda zamonaviy texnologiyalarning o'zni beqiyosdir. Interaktiv texnologiyalar eshitish, aytish, yozish va tahlil qilish ko'nikmalarini bir vaqtda faollashtirib, fonetik kompetentlikning samarali shakllanishiga xizmat qiladi. Qodirova D. (2022) o'z ilmiy izlanishlarida fonetik o'rgatishda texnologiyalardan foydalanish metodikasini yoritgan va ularning afzalliklarini amaliy misollar bilan asoslagan: "Talabalar raqamli vositalar orqali sinf mashg'ulotlaridan tashqari mustaqil ravishda ham fonetik mashqlar ustida ishlay oladilar. Bu jarayon fonetik kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi." (Qodirova, 2022, s. 79)

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab keng qo'llanib kelayotgan texnologiyalar, mobil ilovalar talaygina bo'lib, ular kundan-kunga ommalashib bormoqda va ularga bo'lgan talab oshmoqda. Raqamli ta'lim sharoitida kompetentsiyalarning integrativ texnologiyalarga asoslangan yondashuv bilan uyg'unlashuvi haqida M.E.Mamarajabov (2022) shunday fikr bildiradilar: "Kompyuter, smartfon va planshetlar kabi mobil qurilmalar, raqamli kameralar, ijtimoiy media platformalari va tarmoqlar, dasturiy ilovalar, internet va boshqa raqamli vositalardan foydalanib darslarni tashkil etish jarayoni- integrativ texnologiyalarga asoslangan yondashuvdir, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv esa ta'lim oluvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z ijtimoiy, kasbiy-pedagogik faoliyatlarida amaliy qo'llay olish, foydalanish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir". Bu ta'lim – ta'lim oluvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyalariga ega bo'lish bilan bir qatorda turli resurslar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali ijtimoiy faolligini oshiradi". Umuman olganda ta'limda texnologiya nima uchun kerak?

"Murakkab hodisalarni tushuntirish- yaqin Sharqning qadimiy shaharlari, kovalent bog'lanishlar va yerning aylanishi kabi barcha mavhum hodisalar singari, erishib bo'lmaydigan, inson ko'zi uchun juda katta yoki juda kichik miqyosda sodir bo'lishini texnologiyalar tufayli ko'rish mumkin. Masalan, interaktiv illyustratsiyalar, animatsiyalar va simulyatsiyalar. Multimedia barchaga o'rganish jarayonida qiyin narsalarni tushuntirishga yordam beradi, chunki ular bir ma'noga ega talabalar ongini bir vaqtning o'zida bir nechta kanallar (ko'rish, eshitish) orqali ma'lumotni qayta ishlashga majbur qiladi. Shuningdek, ular darslarni yanada jozibador holatga keltiradi". (Mamarajabov M.)

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"AKT orqali o'qitish motivatsiyani oshiradi, ishonchni mustahkamlaydi, talaffuzni yaxshilaydi"-deb Paolo Fabre-Merchán, Gabriela Torres-Jara, Francisco Andrade-Dominguezlar uz ilmiy makolasida shunday xulosaga kelgan(2017) va bu usulning ilmiy asoslangan va amaliy natijalar bilan boyitilganligini ta'kidlab utgan. ELSA Speak, Speechling, Sounds of Speech singari ilovalar orqali talabalar o'z talaffuzlarini yozib, real vaqt rejimida feedback oladilar.

Multimedia platformalari orasida BBC Learning English, Rachel's English, YouTube pronunciation channels orqali talaffuzdagi urg'u va intonatsiyani audio-vizual asosda o'rganishda beqiyos o'rin tutadi. Audio tahlil vositalaridan Praat, Audacity kabi dasturlar bilan talabalar o'z tovushlarini yozib, spektrogrammalar yordamida talaffuzni tahlil qiladilar. Virtual sinflar va LMS tizimlari sirasiga kiruvchi Moodle, Google Classroom, Quizlet, Kahoot orqali fonetik mashqlarni bajarish, topshiriqlarni avtomatik tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi kunda talab ko'p hisoblangan ilovalardan biri Duolingo bo'lib, bu ilovani rang-barang interfeysi va o'yinga o'xshash qisqa mashqlari foydalanuvchini zavqlantiradi. Ilova bir vaqtning o'zida bir qancha qancha tilni o'rganishingiz mumkinligini cheklamaydi. Duolingoning foydalanuvchilariga ilovani qulay joylashuvi va maqsadga erishgan kunlar sonini kuzatib borish orqali davom etishga undaydigan "chiziq" funksiyasi yoqadi. Ilovada Duolingo Stories kabi resurslarga kirishingiz mumkin, ular qisqa audio hikoyalar bo'lib, ular orqali tushunish qobiliyatingizni tekshirishingiz mumkin. 2021-yil iyun holatiga ko'ra, Duolingo 40 tilda 103 xil til kurslarini taklif etmoqda. Muallifi Luis von Ahn, Severin Hacker.(Duolingo, Inc. 2023 Annual Report (Form 10-K)". U.S. Securities and Exchange Commission (2024-yil 29-fevral).

Babbel ilovasining minimal tartibi foydalanuvchilarga yangi tilni o'rganishda o'ta og'ir bo'lib ko'rinishini oldini olishga yordam beradi. Har bir dars tarjimalar orqali olib boriladi va so'z yoki iboraning o'zgarishlari, rasmlarni o'z ichiga oladi. Agar u iborani yozishni so'rasa, harflar kiritiladi. Shuningdek o'rganayotgan yangi



so'zlarni umumiy suhbatlarda qo'llanishini ko'rsatib boradi. Ular orqali tinglash, iboralarni takrorlash va fe'l guruhlari haqida ko'proq bilib olish mumkin. O'n besh daqiqalik til saboqlari kunning istalgan vaqtida: qatnovda, yo yotishdan oldin yoki tushlik tanaffusida til bilan shug'ullana olishni osonlashtiradi.

Memrisening eng qulay jihatlaridan biri bu ilovaning qisqa videolardan foydalanishi bo'lib, u haqiqiy mahalliy aholi suhbatda turli iboralarni qanday ifodalashini ko'rsatadi. birinchi darsning o'zi ovoz ohangini va tasodifiy talaffuzni tinglash imkonini beradi, shuningdek, iboraning so'zma-so'z tarjimasini ko'rsatadi va uning jinsga bog'liq ishlatilishini tushuntiradi. Ilova tilda malakani oshirishni osonlashtirish uchun tildagi talaffuz nuqsonlarini aniqlashga yordam beradi. Agar siz o'zingizga tanish bo'lgan tilni o'rganayotgan bo'lsangiz, siz allaqachon bilgan iboralarni o'tkazib yuborishingiz mumkin.

Busuu ilovasida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi o'zi tanlagan tilni bilishda hozir qaysi darajada ekanligini aniqlashga yordam beradi. Ilova har bir darajada tilni o'rganish uchun ma'lum kunlik maqsad qo'yib boradi, premium obunada esa o'z o'quv rejasini yaratish mumkin bo'lib belgilangan sanagacha rejadagi maqsadga erisha olish mumkin. Busuu foydali eslatmalarni ham taklif qiladi: Ikkinchi marta tizimga kirganda, so'z boyligini yaxshilash uchun qayta ko'rib chiqish kerak bo'lgan "zaif so'zlar" haqida eslatdi. Tegishli harakatning fotosurati bilan bog'langan iborani tinglashdan tashqari, Busuu foydali lug'at maslahatlarini ham ko'rsatadi.

ELSA Speak – bu ingliz tilini o'rganish va muloqot qilish uchun yagona ilova bo'lib, u dunyodagi eng kuchli beshta ovoz tanish texnologiyalaridan biri deb e'tirof etilgan maxsus sun'iy intellekt asosida xar bir bo'g'indagi talaffuz xatolarini aniqlab to'g'rilashga yordam beradi. Sizning talaffuz testingiz natijalariga asoslanib, ELSA xar bir o'quvchi uchun eng mos keladigan individual o'quv yo'nalishini taklif qiladi, bu esa vaqtni tejab, o'rganish samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari bir qancha taniqli ilovalar mavjud bo'lib, ular ham til o'rganuvchilar uchun qulay vositadir. Mashhur ilovalardan biri Mondly VR bo'lib, uning vazifasi til o'rgatuvchi VR platforma, foydalanuvchini real hayotiy holatlarga qo'yadi va tabiiylik yaratiladi. Bu fonetik kompetentlikni rivojlantirishda t muhim omillar hisoblangan talaffuz va urg'uni real muhitda erkin mashq qilish imkonini beradi. Navbatdagi ilova VirtualSpeech bo'lib, unda uyatchan talabalar uchun qulay imkoniyatlar bor, ya'ni jamoat oldida nutq so'zlash va ingliz tilini real kontekstda mashq qilish mumkin. Mikrofon orqali o'z-o'zini baholash, real muloqotga real tayyorgarlik ko'rish bilan fonetik o'sishni kuzatish mumkin. Yana bir ilova Google Translate AR ilovasi bo'lib, unda kameradan foydalanish orqali real ob'ektlarga tarjima matnini chiqarish imkoniyati mavjuddir. Bu so'zlarni eshitish, ko'rish va talaffuz bilan bog'lash orqali fonetik kamchiliklarni tuzatish imkonini beradi.

Shu bilan bir qatorda yana bir mashhur ilova "Sounds: pronunciation app" (Talaffuz ilovasi) EFL talabalariga har bir fonemaning to'g'ri talaffuzini o'zlashtirishga yordam bergan (Ruan, 2015). Bundan tashqari, Shah va Freedmanning ta'kidlashicha (2003) "Xalqaro fonetik alfavit" (International Phonetic Alphabet) kabi veb vositalarni fonemik ongini rivojlantirish orqali ikkinchi tilni o'zlashtirishda ajoyib ta'limiy vosita sifatida tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi va kutilgan natijaga olib keladi.

Yana bir samarali platforma Moodle (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) bo'lib, bu ochiq kodli LMS (language managing system) til o'rganishni boshqarish tizimi bo'lib, bunda masofaviy ta'limni tashkil qilishda keng qo'llaniladi va yaxshi samara beradi. Bu platforma quyidagicha ishlaydi: o'qituvchi kurs ma'lumotlarini yaratadi, talabalar esa platformada ro'yxatdan o'tadi, unda test, forum, fayl yuklash va baholash imkoniyati mavjud bo'lib, o'z-o'zini rivojlantirish va tilni mukammal o'rganish imkonini beradi hamda talabaning mustaqil ta'lim olishi, platforma uning bilim darajasiga moslashtirilishi ayniqsa introvertlarni qo'llab-quvvatlaydi. Platformaning texnik jihatdan salgina murakkabligi, internetga doimiy ehtiyoj bo'lishi biroz noqulayliklarga sabab bo'lishi mumkin. "Moodle'ning ochiq kodli tabiati turli pedagogik yondashuvlarga moslashish va o'zgartirish imkonini beradi." (Dougiamas & Taylor, 2003)

Nafaqat til o'rganish, balki umumiy bilimlarni oshiruvchi ta'lim platformasi sanalgan Google Classroom Google tomonidan yaratilgan bepul ta'lim platformasi bo'lib, u Google xizmatlari bilan integratsiyalashgan. Bunda o'qituvchi platforma orqali dars yaratadi, mavzular bo'yiucha topshiriqlar beradi, bajarilgan topshiriqlar talabalar tomonidan topshiriladi, o'qituvchi esa bu topshiriqlarni sharhlaydi va baholay oladi. Platformadan foydalanish qulay va oson bo'lib, u bevosita Google xizmatlari bilan integratsiya qilingan, bajarilgan topshiriqlar. Bulutda saqlanadi. Biroq ma'lumotlarning maxfiy ekanligi va platformaning ayrim funksiyalarining cheklanganligi uning kamchiligi hisoblanadi. "Google Classroom xam o'qituvchilar, xam talabalar uchun muloqot va topshiriqlarni boshqarishni yaxshilaydi." (Iftakhar, 2016).

Kahoot ham chet tili o'qituvchilari orasida juda ommalashgan bo'lib, butun dunyoundan keng foydalanadi. U o'yin asosida o'rganishga yo'naltirilgan interaktiv viktorina platformasidir. Unda o'qituvchi savollar yaratadi, o'quvchilar real vaqtda javob beradi. Qiziqarli dars o'tish va Raqobat motivatsiyani oshirishi platformaning foydali tomonidir. Lekin, ayrim juziy kamchiliklari ya'ni yuzaki bilimga urg'u berish va tezlik va yod olishga asoslanganligini ham ta'kidlab o'tish joiz. "Kahoot kabi o'yin asosidagi o'qitish platformalari talabalarning o'quv jarayoniga jalb etilishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan." (Plump & LaRosa, 2017)



Platforma	Afzalliklar	Kamchiliklar
Moodle	Moslashtiriladi, bepul	Murakkab sozlash, interfeys oddiy
Google Classroom	Foydalanish oson, Google bilan integratsiya	Maxfiylik, cheklangan funksiyalar
Kahoot	Qiziqarli, o'yin shaklida	Yuzaki bilim, faqat qisqa testlarga mos
Quizlet	Yaxshi yodlash vositasi	Yuzaki o'rganish, mualliflik muammolari
Edmodo	Ijtimoiy muhitda ta'lim, xavfsiz	Kam foydalanilmoqda, platforma zaiflashgan

“Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qituvchining subyektiv bahosidan holi tarzda, talaffuzdagi nozik kamchiliklarni aniqlash mumkin bo'ladi.”(Qodirova, 2022, s. 81). Fonetik kompetentlikni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar markaziy o'rin tutadi. Ular nafaqat yordamchi vosita, balki mustaqil va interaktiv o'rganishni tashkil etuvchi metodik asos sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Qodirova (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda aynan texnologiyalarning o'quv jarayonidagi integratsiyasi va ularning pedagogik samarasi asoslab berilgan.

Pedagogik jihatdan raqamli texnologiyalar talabaning individual o'qish sur'atini hisobga olish, moslashtirilgan o'quv yo'nalishlarini yaratish va o'qituvchining raqamli mediator sifatidagi rolini oshirish imkonini beradi (Salmon, 2011).

Fonetik ta'limda raqamli vositalarning afzalligi shundaki, ular orqali TTS (Text-to-Speech), ASR (Automatic Speech Recognition) texnologiyalari yordamida real va sun'iy talaffuzni tahlil qilish, avtomatik feedback olish, o'z-o'zini tuzatish va mashq qilish imkoniyati mavjud (Kukul'ska-Hulme, 2012; Binturki, 2019).

CEFR (2020) tizimida phonological control mezonlari kengaytirilib, raqamli muhitda fonetik mashg'ulotlar uchun interaktiv audio mashqlar, talaffuzni aniqlovchi mashinalar (ELSA Speak, Google Speech), va feedback asosida talaffuzni yaxshilovchi dasturlar tavsiya etiladi.

O'zbekistonda raqamli ta'lim 2019-yildan boshlab izchil joriy qilinmoqda. 2020-yil pandemiyasi raqamli ta'limni tezlashtirdi. Ziyonet, EduMarket, MyEduSoft kabi platformalar faoliyat olib bormoqda. Chet tillarini o'qitishda raqamli vositalarni qo'llash bo'yicha startaplar va grantlar yo'lga qo'yilgan (PQ-4884, 2020; Muhammadiev, 2023).

Zamonning jadallik bilan rivojlanib borishi har bir sohaga sezilarli ta'sir o'tkazayotganidek, ta'lim sohasida ham bu borada bir qancha ilg'or tushunchalar mavjud. Jumladan, raqamli pedagogika va EdTech hozirgi kunda eng ommalashgan va talab yuqori bo'lgan platformalar sanaladi.

Raqamli Pedagogika (Digital Pedagogy) “Digital pedagogy is the use of electronic elements to enhance or change to educational practice.”(David J. Staley, 2009). “Raqamli pedagogika – bu raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish va o'rganishni rejalashtirish, tashkil etish, baholash va moslashtirish usullarining majmua-sidir.”(Selwyn, N. 2016, p. 87)

Uning asosiy va muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Interaktivlik bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi ikki tomonlama muloqotdir.
2. Moslashuvchanlik esa har bir o'quvchining ehtiyojiga mos kontentga ega bo'lishi hisoblanadi.
3. Shaxsiylashtirish bilimni individual o'rganish trayektoriyalaridir.
4. Avtomatlashtirilgan baholash – algoritmlar asosida tuzilgan testlarga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli pedagogika olamshumul atama bo'lib, unga bir nechta global ta'riflar keltirilgan: “Raqamli kompetentsiya” – bu ta'lim, mehnat faoliyati va jamiyatda faol ishtirok etish maqsadida raqamli texnologiyalardan ishonchli, tanqidiy va mas'uliyatli foydalanish hamda ular bilan ongli muomala qilishni o'z ichiga oladi. (European Commission, DigComp 2.1, 2017).

Leticia Quesada Vázquez (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda fonetik transkripsiyani masofaviy sharoitda o'rgatishning samarali usullari va vositalari tahlil qilinadi. Shuningdek, muallif dars metodikasini virtual muhitga moslashtirish uchun sinxron (Microsoft Teams orqali umumiy hujjatlarda ishlash) va asinxron (audio mashqlar, yozma topshiriqlar, transkripsiya asosidagi talaffuz) mashg'ulotlarni uyg'unlashtirishni taklif etadi. Har bir vosita foydalanuvchilarning texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlangan bo'lib, bu esa individual yondashuvga asoslangan ta'lim tizimini ko'rsatadi.

Tadqiqotda keltirilgan yondashuvlar raqamli ta'lim vositalarining nafaqat texnik jihatdan, balki metodik asosda ham o'qitish sifatiga ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, talabalarning fonetik belgilarni tushunishi, ularni talaffuz va eshitish orqali farqlashi, matnlar asosida mustaqil transkripsiya qilishi kabi ko'nikmalar bosqichma-bosqich shakllantirilgan.



Maqola shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar yordamida fonetik kompetensiyani rivojlantirish uchun:

1. Talabaga mos va qulay vositalar tanlanishi,
2. O'quvchilarni mustaqil ishlashga undovchi topshiriqlar berilishi,
3. Sinxron va asinxron metodlar uyg'unlashtirilishi,
4. Talaffuz, eshitish, yozma va og'zaki faoliyatlar integratsiyasi ta'minlanishi zarur.

Ushbu yondashuvlar ESP talabalarida fonetik kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, raqamli ta'lim imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishning samaradorligini tasdiqlaydi.

G.R.Akramova "Raqamli texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi insoniyatning yahsash tarzi, sharoitini butunlay yangicha darajada o'zgartirib yubormoqda. Ulardan ham kundalik ishlarida ham ishlab chiqarishda foydalanish insoniyatni to'rtinchi sanoat inqilobiga olib keldi. Raqamli inqilobga asoslangan bu sanoat inqilobni aqlli tizimlar tomonidan boshqariluvchi avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishga butunlay o'tish deganidir"-deb ta'kidlaydilar.

A.O'.Mirzayev ta'rifiga ko'ra "Bugungi kunda raqamli ta'lim, oliy ta'lim tizimlarimizda o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilar va talabalarimizning fanni o'zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida talabalarning o'zlari mustaqil o'rganishi, shaxsiy o'rganishga moslashishi va o'zini ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Dars jarayonlari raqamli kontentda jonli olib boorish va darslarga interfaol topshiriqlarni berish, virtual laboratoriyalarda o'rganish talabalarni yanada fikrlashlarini o'stiradi. O'zi qiziqqan sohadagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Raqamli platformalarda individual o'quv yo'nalishlari, adaptiv testlar yoki shaxsiy tavsiyalar asosida talabaning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda dars mazmuni shakllantiriladi. Bu esa individual yondashuvga asoslangan ta'limni amalga oshirish imkonini berishi to'g'risidagi ilmiy qarashlar Garrison D.R. va Vaughanlarga tegishli bo'lib, ular bu haqida shunday qarorga kelishadi: "Onlayn ta'lim har bir o'quvchining ehtiyoj va qiziqishlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi." (Garrison, D. R. & Vaughan, N. D., 2008. Blended Learning in Higher Education).

COVID-19 pandemiyasi global ta'lim tizimiga o'zining chuqur va kutilmagan ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. An'anaviy yuzma-yuz o'qitish shakli to'xtab, dunyo bo'yicha millionlab o'quvchilar va o'qituvchilar masofaviy ta'lim shakliga keskin tarzda o'tishga majbur bo'ldi. Bu jarayon ta'lim sohasidagi raqamlashtirishning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlabgina qolmay, mavjud muammolarni ham yuzaga chiqardi. Bozkurt va boshqalar (2020) ta'kidlaganidek:

"Pandemiya ta'lim tizimini sinovga soldi, bu esa kuchli raqamli infratuzilmaning mavjudligi va o'qituvchilarning onlayn pedagogikaga tayyorligi naqadar muhim ekanligini ochiq ko'rsatdi." (Bozkurt, 2020. Asian Journal of Distance Education)

Raqamli tafovut bu onlayn ta'limga o'tishda eng dolzarb muammolardan biri bo'ldi. Barcha o'quvchilar ham internetga, zamonaviy kompyuter yoki smartfonlarga, qulay o'quv muhitiga ega emas edilar. Shu bois, kam ta'minlangan oila farzandlari yoki chekka hududdagi o'quvchilar uchun onlayn ta'lim sifatsiz yoki umuman mavjud bo'lmagan holda kechdi. Shu sababli, ko'plab o'qituvchilar raqamli platformalar (Zoom, Google Classroom, Moodle, MS Teams va h.k.) bilan ishlash ko'nikmasiga ega emas edilar. Buning natijasida onlayn darslar sifati pasaydi, vaqtni boshqarish va interaktivlikda qiyinchiliklar yuzaga keldi. O'qituvchilarga qisqa muddat ichida raqamli pedagogika asoslarini o'rganishga to'g'ri keldi, bu esa qo'shimcha ruhiy va metodik bosimni keltirib chiqardi. Internet tezligining pastligi, qurilmalar yetishmovchiligi va o'quvchilarning mustaqil o'rganishga tayyor emasligi sababli onlayn ta'limda bilim o'zlashtirish darajasi an'anaviy sinf ta'limidan past bo'lishi qayd etildi. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni oldindan joriy etgan va o'qituvchilarni tayyorlagan tizimlar bu inqirozga nisbatan ancha barqaror qarshilik ko'rsatishga muvaffaq bo'lishgan (UNESCO, 2020).

XULOSA

O'zbekistonda raqamli ta'lim infratuzilmasining shakllanishi, milliy platformalarning rivojlanishi va texnologik vositalarning ta'limga tatbiq qilinishi ushbu jarayonning muhim bosqichidir. Fonetik kompetensiyani rivojlantirishda TTS, ASR, spektral tahlil vositalari, gamifikatsiya va AR/VR texnologiyalarining integratsiyasi o'quvchilar uchun ko'pkanal va chuqurlashtirilgan o'quv muhiti yaratadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida talaffuz, eshitish, yozish va aytish kabi til ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirish mumkinligi ushbu metodik yondashuvni nafaqat zamonaviy, balki istiqbolli yo'nalish sifatida tasdiqlaydi. Shu sababli, raqamli ta'lim vositalaridan maqsadli va ilmiy asoslangan holda foydalanish ESP yo'nalishidagi talabalar fonetik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil sifatida qoralishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova, G.R. (2022). Raqamli texnologiyalarning hayotimizdagi o'rni va ta'siri. Toshkent: Innovatsion ta'lim nashriyoti.
2. Binturki, T. (2019). The effectiveness of automatic speech recognition in developing pronunciation among EFL learners. *Journal of Language Teaching and Research*, 10(3), 543–550.
3. Bozkurt, A. et al. (2020). A global outlook to the interruption of education due to COVID-19 pandemic: Navigating in a time of uncertainty and crisis. *Asian Journal of Distance Education*, 15(1), 1–126.
4. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume*. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
5. Dougiamas, M. & Taylor, P. (2003). Moodle: Using learning communities to create an open source course management system. *World Conference on Educational Multimedia, Hypermedia and Telecommunications*, 171–178.
6. European Commission. (2017). *The Digital Competence Framework for Citizens (DigComp 2.1)*. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
7. Fabre-Merchán, P., Torres-Jara, G. & Andrade-Dominguez, F. (2017). ICT for pronunciation improvement in EFL learners. *Journal of Applied Linguistics and Language Research*, 4(2), 45–57.
8. Garrison, D.R. & Vaughan, N.D. (2008). *Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines*. San Francisco: Jossey-Bass.
9. Iftakhar, S. (2016). Google Classroom: What works and how? *Journal of Education and Social Sciences*, 3, 12–18.
10. Jabborova, L.A. (2023). Raqamli ta'lim muhitida talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar. *Til va ta'lim jurnali*, 4(2), 65–71.
11. Kukulska-Hulme, A. (2012). Language learning defined by technology. *ReCALL*, 24(3), 264–279.
12. Mamarajabov, M.E. (2022). Integrativ texnologiyalarga asoslangan ta'lim yondashuvi va uning afzalliklari. *Oliy ta'lim va innovatsiyalar jurnali*, 3(1), 78–85.
13. Mirzayev, A.O'. (2023). Oliy ta'lim tizimida raqamli ta'limning rivojlanish istiqbollari. Toshkent: TDPU.
14. North, B. (2007). *The CEFR illustrative scales*. Council of Europe, Strasbourg.
15. Qodirova, D. (2022). Fonetik kompetentlikni rivojlantirishda texnologiyalarning o'rni. *Chet tillar ta'limida zamonaviy yondashuvlar to'plami*, 78–82.
16. Quesada Vázquez, L. (2021). Digital phonetic transcription tools for online learning: A case study at Rovira i Virgili University. *Revista de Lingüística y Educación*, 12(2), 97–110.
17. Ruan, Z. (2015). Improving EFL learners' pronunciation through mobile applications. *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, 10(4), 30–35.
18. Salmon, G. (2011). *E-moderating: The Key to Teaching and Learning Online*. London: Routledge.
19. UNESCO. (2021). *The Digital Learning Report 2021: Transforming Education for a Digital Future*. Paris: UNESCO.
20. Von Ahn, L. & Hacker, S. (2024). Duolingo, Inc. 2023 Annual Report (Form 10-K). U.S. Securities and Exchange Commission.
21. Plump, C.M. & LaRosa, J. (2017). Using Kahoot! in the classroom to create engagement and active learning. *Management Teaching Review*, 2(2), 151–158.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.